
ISSN: 3060-4613

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№11(1)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar böyiça)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport maşğulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqiçlari böyiça)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgaça ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LİMİ

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslaşgan ilmiy jurnal

MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LİMİ

Elektron naşr. 296 sahifa,
2-oktyabr, 2026-yil.

BOŞ MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOŞ MUHARRIR ÖRINBOSARI:
Aşurov Ramzidin Ramazonoviç – Psixologiya fanlari böyiça falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGAŞI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Şoumarov Ğ.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirğizboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Şaripov Ş.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Şermuhammadov B.Ş. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qöldoşev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozoğiston)
Rejep Özyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Ça – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Ş. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi Özbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM boş muharriri, Özbekiston Respublikasida xizmat körsatgan jurnalist, filologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD), dotsent
Ğafurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Şomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD)
Nematov Ş.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yiça falsafa doktori (PhD)
Yuldaşeva F.I. – pedagogika fanlari böyiça falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldaşeva D.B. – filologiya fanlari böyiça falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toşkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qaşqadaryo viloyati Maktabgaça va maktab ta'limi boşqarmasi boşliğining birinçi örinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bölimining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor öğli – Pedagogika fanlari böyiça falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va işbilarmon" MÇJ
Hamkorlarimiz: Özbekiston Respublikasi Ta'lim va ilm-fan vazirligi, Özbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Aşurov Ramzidin Ramazonoviç – Doctor of Philosophy (PhD) in Psyçology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Şoumarov Ğ. B. – Doctor of Psyçological Sciences, Academician
Qirğizboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Persçool and Sçool Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Şaripov Ş.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Şermuhammadov B.Ş. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoşev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psyçological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psyçological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep Özyurek – Doctor of Psyçological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Ça – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psyçological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Ş. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Çief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi Özbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Şomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psyçological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psyçological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Ş.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Teçnical Sciences
Yuldaşeva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldaşeva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Taşkent State University of Economics
Aşurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psyçology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Presçool and Sçool Education of the Kaşkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researçer of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali Özbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni çop etiş uçun milliy ilmiy naşrlar röyxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari böyiça: OAK Kengaşi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

• Ekspert kengaşi (29.10.2024-y., №10)

• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari böyiça: Toşkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

• Ekspert kengaşi (25.05.2025-y., №10)

• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi böyiça röyxatdan ötkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Ta'lim jarayonida deontologik tamoyillar asosida nizolarni boşqariş 10
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna

Sun'iy intellekt asosida maktab öquvçilarining matematik xatolarini diagnostika qiliş va individual tavsiyalar şakllantirişning gibrid adaptiv modeli 15
Abdullayeva Nazokat Isayevna, Abdurazzoqova Zebuniso Tolmas qizi

Harbiy xizmatçilarning pedagogik mahoratini oşirişning ilmiy-metodik asoslari 21
Yadgarov Ravşan Ergaşeviç

Inklyuziv ta'limda logopedik texnologiyalardan foydalaniş metodikasi 27
Ikramova Dilafruz Furqat qizi, Ilhomova Malikaxon Dilşod qizi

Faoliyat markazlari vositasida maktabgaça yoşdagi bolalarning raqamli savodxonligini şakllantiriş metodikasi 30
Jo'rayeva Gulira'no Nazirjon qizi

Bölajak tasviriy san'at öqituvçilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirişda an'anaviy naqqoşlik san'atining pedagogik imkoniyatlari 36
Rözmetov Quvondiq Şanazaroviç

Pedagogik hamkorlik asosida ösmir yoşdagi öquvçilarda ijtimoiy voqelikka sezgirlikni tarbiyalaş mexanizmlari 42
Bazarova Gulnoza Ziyodulla qizi

Talabalarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini jismoniy madaniyat vositasida rivojlantiriş metodikasini takomillaştiriş 47
Imomov Asliddin Abdurazoqoviç

Harakatli öyinlar yordamida boşlanğiç sinf öquvçilarining harakat faolligini oşiriş usullari 51
Ernazarova Ziyoda Erkin qizi

Sun'iy intellektning inson fikrlaş qobiliyatiga ta'siri: intellektual rivojlaniş uçun imkoniyatlar va tafakkur zaiflaşuvi xavfi 55
Tölaganov Abdumalik Abdiraximoviç

Jadidçilik harakatining vujudga kelişining ijtimoiy-tarixiy şart-şaroitlari 60
Nişonov Muhammad Bahodir öğli, Pulatov Şerdor Nematjonoviç

Maktabgaça ta'lim taşkilotlari direktorlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirişning nazariy-metodologik asoslari 66
A'zamova Malohat Nadjimovna

Söz yasalişi, morfologiya va sintaksisning özига xos xususiyatlari 70
Bobojanov Şaripboy Xudoşukiroviç

Inklyuziv ta'limda diskriminatsiyani oldini oliş va ularni psixologik qöllab quvvatlaş tamoyillari 74
Bozorova Muxlisa

Neyro logopediya va biometriya 78
Foiqova Diyora Anvar qizi

Bölajak öqituvçilarning metakognitiv faoliyatini rivojlantirişda refleksiv topşiriqlardan foydalaniş 83
Ibrohimova Şahlo Umarali qizi

3–4-sinf öquvçilarining badiiy asarlar öqişga qiziqişini oşirişning metod, şakl va vositalari 88
Rasulova Zohida Sindorovna

Raqamli ta'lim muhitida kasbiy-refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirişning metodik tizimini integratsiyalaş 92
Talabova Dilrabo Tolibova

Informatika va uni öqitiş metodikasi fanini öqitişda adaptiv öquv dasturlari va virtual laboratoriyalardan foydalanişning metodik tizimi 98
Xomidov Zohidjon Adhamjon öğli

Развитие профессиональной компетентности будущих педагогов в условиях цифровизации образования 104
Шаланков Константин Константинович

Pedagogik loyihalaştiriş orqali öquvçilarning şaxsiy va ijtimoiy rivojlanişini ta'minlaş 109
Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyeviç, Nazarova Nilufar Ismailovna

Dual ta'lim va refleksiv kompetensiya: pedagog kasbiy rivojlanişining yangi imkoniyatlari 113
S. R. Mansurova

Bixevioristik yondaşuv futurologik könikmalarni rivojlantiruvçi pedagogik va psixologik omil sifatida 118
Nişonov Nodir Alimjanoviç

Linguoculturological Features of the Concept "Respect And Esteem" in English and Uzbek Cultures 121
Naimova Dildora Kaxramonovna

Klasterli yondaşuv asosida bölajak pedagoglarning forsayt kompetensiyasini rivojlantiriş 125
Sotbarov Atabek Asilbek öğli

Nizolar paydo bölişining psixologik omillari 132
Olimov Saydullo Soxobjonoviç

Matematikadan milliy öquv dasturi loyihasi mazmuni haqida 141
Djumayev Mamanazar Irgaşeviç

Professional Requirements for Prospective English Language Teachers in Teaching Writing to Students With Special Educational Needs 149
D. X. Saydazimova

"Bilingval öquv muhiti" va "kreativ modellaştiriş" tuşunçalarining mazmuni va özaro boğliqligi 154
Djabbarova Feruza Odilovna

Texnologiya darslarida sun'iy intellekt vositalari orqali öquvçilarning ijodiy fikrlaş qobiliyatini rivojlantiriş imkoniyatlari 161
Raxmatov A'zam Aşur öğli, Tursunova Sevara Jamşid qizi

Autistik spektr buzilişli bolalarning luğat boyligini rivojlantiriş va muloqot ko'nikmalarini şakllantiriş metodikasi 165
Tuxtayeva Maxfirat

Maktabgaça tayyorlov yoşdagi bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berişda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalaniş yöllari, şakl va vositalari 170
O'razova Maqsuda Şuhratning qizi

Raqamli hamkorlikda refleksiya va muqobil yeçimlarni yaratişning metodik imkoniyatlari 175
Yusupov Muxtorbek Roximoviç

Multimodal ta'lim texnologiyalari asosida pedagogik kadrlarni tayyorlaşning integrativ ilmiy-metodik tizimi 179
Sultonova Zaxro Baxtiyor qizi

Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanişning maktab matematika ta'limidagi imkoniyatlari va çeklovlari 186
Almuratov Shavkat Narpulatovich, Turdiqulova Xulkaroy Anvarovna, Yuldasheva Aziza Azamat qizi, Razzoqova Mahliyo Naimjonovna

Qalbing orom olar maqom eşitsang: özbek milliy mumtoz musiqa san'atining falsafiy, psixo-emotsional va ilmiy-akustik asoslari 192
Ergashxonov Baxodirxon Toxirxon o'g'li

Milliy qadriyatlar asosida bolalarning ijtimoiy moslaşuvini ta'minlaşda maktabgaça ta'lim taşkiloti va oila hamkorligi 197
I. N. Hasanova, Boymirzayeva Nodira Maxmudjon qizi

Maktabgaça ta'lim samaradorligini oşirişda Mariya Montessori va Reggio metodikalari 199
Maxmudova Zulfiya, Hoshimova Dilnoza

Boşlanğiç sinf öquvçilarida fazoviy tasavvurlarni konstruktiv faoliyat vositasida rivojlantiriş 202
Dehqonova Mahliyo Şuhrat qizi, Bakirova Şahlo Muxtor qizi

Zamonaviy oilada rollar taqsimotining ijtimoiy-psixologik omillari 207
Majidov Jasur Baxtiyaroviç

Ösmirlik davrida tolerantlikning psixologik tuzilmasi va emotsional-irodaviy determinantlari 212
Qozoqova Intizor Ismoyiljonovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Bölajak boşlanğiç sinf öqituvçilarida gender stereotiplariga nisbatan tanqidiy tafakkurni rivojlantiriş metodikasini takomillaştiriş 217
Xolmatova Zulfiya Tillavoldiyevna

Boşlanğiç ta'lim jarayonida steam ta'lim texnologiyalarini qöllaş orqali öquvçilarning kreativ fikrlaşini rivojlantiriş metodikasi 221
Djumayeva Zoxidaxon Muxammadjonovna, Aliyeva Navrözbibi Abdijalilovna

Oila va maktabgaça ta'lim taşkiloti hamkorligining pedagogik asoslari 225
Iminova Dilnoza Nasirovna

Kreativ yondaşuv asosida bölajak ingliz tili öqituvçilarining lingvometodik kompetensiyalarini rivojlantiriş metodikasini takomillaştiriş 228
Yuldaşeva Umida Maxmudovna

Boşlanğiç ta'lim jarayoniga antropologik yondaşuv asosida öquvçilarni intellektual rivojlantiriş metodikasini takomillaştiriş 232
Oltiboyeva Kamola Şarofjon qizi

Инновационный подход к методам выразительного чтения в современном образовательном процессе Ташкентский университет гуманитарных наук 236
Пулатов Фуркат Тухтамуродович

Umumta'lim maktablarida iqtidorli öquvçilarni aniqlaş va ular bilan işlaş yöllari: jahon tajribasi tahlili 243
Zaynitdinova Masuda Abdukadirovna

Возможности "SMART"-технологий в образовании детей с ограниченными возможностями 250
Абдухоликова М. Б.

Inklyuziv ta'lim şaroitida koxlear implantli bolalarning eşituv-nutqiy faoliyatini taşkil etişning pedagogik şart-şaroitlari va metodik modeli 256
Mirzayeva Umidaxon Inamovna

Nemis tilida yozma nutq könikmalarini rivojlantirişning zamonaviy pedagogik usullari 261
Turamurodova Sevinç Anvarovna

Maktabgaça yoşdagi bolalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirişda tarbiyaçining pedagogik mahorati va interfaol öyinlarning özaro uyğunligi 264
Kamoldinova Muazzam Avazbek qizi

Maktabgaça ta'lim tizimida kadrlar malakasini oşiriş sifatiga ta'sir etuvçi taşkiliy-pedagogik va ijtimoiy-psixologik omillar 270
Raximova Shaxlo Baxtiyorovna

Bölajak tarbiyaçilarni maktabgaça ta'lim taşkilotlarida bolalarni jismoniy tarbiyalaşga tayyorlaşning pedagogik şart-şaroitlari 276
Ibraximov Sanjar Urunbayeviç

Voyaga yetmaganlar bilan professional muloqot jarayonida emotsional intellektning ahamiyati 282
Raxmanova Dilnoza Farmanovna

Katta guruh tarbiyalanuvçilarining STEAM ta'lim texnologiyasi asosida nutqiy komptensiyasini şakllantiriş metodikasi 286
Tairova Madinabonu Baxtiyarovna, Sohobova Oyşaxon Asatillo qizi

Şifoxona şaroitida uzoq muddat davolanayotgan bolalarga ta'lim berişning pedagogik xususiyatlari va usullari 291
Vorisova Zuhra Raufovna

BÖLAJAK TARBIYAÇILARNI MAKTABGAÇA TA'LIM TAŞKILOTLARIDA BOLALARNI JISMONIY TARBIYALAŞGA TAYYORLAŞNING PEDAGOGIK ŞART-ŞAROITLARI

Ibraximov Sanjar Urunbayeviç
Alfraganus university "sport faoliyati" kafedrasi professori,
pedagogika fanlari doktori(DSc)

ORCID: 0000-0002-9347-5595

Annotatsiya: Maktabgaça yoşdagi bolalar salomatligi körsatkiçlarining sezilarli darajada pasayişi maktabgaça ta'lim pedagoglarini soğliqni saqlaşga oid vazifalarni hal etişga tayyorlaş zaruratini yuzaga keltiradi. Bolalarni jismoniy tarbiyalaşda tarbiyaçining uşbu jarayonga munosabati, jismoniy tarbiya-soğlomlaştiriş faoliyatining turli şakllaridan foydalanişga intilişi hamda bolalarda jismoniy tarbiya maşğulotlariga qiziqiş uyğota olişi hal qiluvçi ahamiyat kasb etadi. Bölajak tarbiyaçilarni tayyorlaş jarayoni ta'lim mazmunini tanlaş va uni maktabgaça ta'lim tizimining maqsadlari, bolaning jismoniy rivojlanişi hamda har bir talabaning tayyorgarlik darajasiga muvofiq özlaştirişni nazarda tutadi.

Kalit sözlar: salomatlik va uni saqlaş, bölajak tarbiyaçilar, maktabgaça yoşdagi bolalar, jismoniy tarbiya, pedagogik şart-şaroitlar, maktabgaça ta'lim taşkilotlari.

Abstract: The significant decline in the health indicators of preschool-aged children necessitates preparing preschool educators to address health-related challenges. In children's physical education, the educator's attitude towards this process, willingness to employ various forms of physical education and health-promoting activities, and ability to foster children's interest in physical education play a decisive role. The training of future educators involves selecting educational content and ensuring its mastery in accordance with the objectives of the preschool education system, children's physical development, and each student's level of preparedness.

Key words: health and health preservation, future educators, preschool-aged children, physical education, pedagogical conditions, preschool educational organizations.

Аннотация: Значительное снижение показателей здоровья детей дошкольного возраста обусловливает необходимость подготовки педагогов дошкольного образования к решению задач, связанных с охраной и укреплением здоровья детей. В физическом воспитании детей решающее значение имеют отношение воспитателя к данному процессу, стремление использовать различные формы физкультурно-оздоровительной деятельности, а также умение формировать у детей интерес к занятиям физической культурой. Подготовка будущих воспитателей предполагает отбор содержания обучения и его освоение в соответствии с целями системы дошкольного образования, физическим развитием ребёнка и уровнем подготовленности каждого студента.

Ключевые слова: здоровье и его сохранение, будущие воспитатели, дети дошкольного возраста, физическое воспитание, педагогические условия, организации дошкольного образования.

KIRIŞ

Maktabgaça yoş inson hayotidagi jismoniy faollikka soğlom turmuş tarzining zaruriy tarkibiy qismi sifatida munosabat şakllanadigan hal qiluvçi davr hisoblanadi. Maqsadli taşkil etilgan jismoniy tarbiya bolaning psixomotor, aqliy va hissiy rivojlanişiga bevosita hissa qöşadi. Şu sababli bölajak pedagoglarni, jumladan, maktabgaça ta'lim mutaxassislarini kasbiy tayyorlaş jarayonini takomillaştiriş ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Tarbiyaçining pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasi bolalarni umummilliy qadriyatlar asosida tarbiyalaş samaradorligiga bevosita ta'sir körsatadi. Uşbu qadriyatlardan biri yoş avlod salomatligini saqlaş va mustahkamlaşdir. Maktabgaça ta'lim taşkilotida salomatlikni saqlaşga yönaltirilgan muhitni yaratiş ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Şu nuqtayi nazardan, pedagog kadrlarni bolalarni jismoniy tarbiyalaşga tayyorlaş masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jismoniy tarbiya va sport inson tanasi hamda harakatlarining gözalligi, şuningdek, ezgu xatti-harakatlar kabi estetik qadriyatlarni turli şakllarda namoyon etadi.

Özbekiston Respublikasida mazkur sohaning huquqiy asosini bir qator normativ-huquqiy hujjatlar taşkil etadi. "Ta'lim töğrisida"gi 637-son[1] Qonunning 8-moddasida maktabgaça ta'lim va tarbiya bolalarni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirişga qaratilgan ta'lim turi sifatida belgilangan [1]. "Maktabgaça ta'lim va tarbiya töğrisida"gi 595-son[2] Qonunning 24-moddasi maktabgaça ta'lim taşkilotlari zimmasiga bolalarning rivojlanişi, ta'lim va tarbiya olişi uçun xavfsiz şart-şaroitlar yaratiş, şuningdek, bolaning hayoti yoki soğliğiga tahdid soluvçi holatlar haqida vakolatli organlarni xabardor qiliş majburiyatini yuklaydi. Mazkur Qonunning 47-moddasiga muvofiq, bolalar soğliğini saqlaş birinçi tibbiy yordam körsatiş, maqbul öquv yuklamasini belgilaş, soğlom turmuş tarzi könikmalarini tarğib qiliş va örgatiş, soğlomlaştiriş tadbirlarini taşkil etiş, kun tartibiga rioya qiliş, soğlom ovqatlanişni yölga qöyiş hamda jismoniy faollik uçun zarur şart-şaroitlarni yaratişni öz içiga oladi. Mazkur moddada sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya etilişi ustidan nazoratni amalga oşiriş ham nazarda tutilgan. Qonunning 42-moddasida esa maktabgaça ta'lim taşkiloti pedagogining kasbiy standartini kadrlarni işga qabul qiliş, öqitiş va attestatsiyadan ötkaziş jarayonlarida qöllaş belgilangan [2].

Sohani rivojlantirişning ustuvor yönalişlari Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son[3] qarori bilan tasdiqlangan Maktabgaça ta'lim tizimini 2030-yilgaça rivojlantiriş konsepsiyasida [3], şuningdek, 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son[4] Farmonida [4] belgilangan. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son[5] qarori bilan Maktabgaça ta'lim va tarbiyaning davlat standarti tasdiqlangan [5]. Aholi örtasida jismoniy faollikni oşiriş masalalari Prezidentning 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son[6] Farmonida [6], jismoniy tarbiya va sport sohasidagi munosabatlar esa 2026-yil 24-martdagi ÖRQ-1123-son[7] "Jismoniy tarbiya va sport töğrisida"gi Qonunda [7] tartibga solingan. Tarbiyaçilarga qöyiladigan kasbiy talablar Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-iyuldagi 423-son[8] qarori bilan tasdiqlangan kasbiy standartda [8], pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlaniş tartibi esa 2024-yil 20-dekabrdagi 867-son[9] qarorda [9] belgilangan.

Maktabgaça ta'lim taşkilotlarida bolalarni jismoniy tarbiyalaş soğlomlaştiriş va rivojlantiriş işlarining ikkita asosiy yönalişini qamrab oladi: bolalarni jismoniy madaniyatga jalb etiş hamda maktabgaça yoşdagi bolalar bilan soğlomlaştiriş işlarining rivojlantiruvçi şakllaridan foydalaniş. Jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi bolalar salomatligining yuqori darajasini ta'minlaş, şuningdek, ularda soğlom turmuş tarzi va xavfsiz xulq-atvor bilan boğliq vazifalarni mustaqil hal etiş imkonini beradigan jismoniy madaniyatni şakllantirişdan iborat.

Tadqiqotning maqsadi – bölajak tarbiyaçilarni maktabgaça ta'lim taşkilotlarida bolalarni jismoniy tarbiyalaşga tayyorlaşning pedagogik şart-şaroitlarini aniqlaş va nazariy jihatdan asoslaş.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Bölajak tarbiyaçilarni bolalarni jismoniy tarbiyalaşga tayyorlaş muammosining örganilganlik darajasini ilmiy-pedagogik adabiyotlar asosida tahlil qiliş.
2. Özbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarida maktabgaça ta'lim taşkilotlarida bolalar salomatligini saqlaş va jismoniy tarbiyalaşga, şuningdek, pedagoglarning kasbiy tayyorgarligiga qöyilgan talablarni aniqlaş.
3. "Pedagogik şart-şaroitlar" tuşunçasining mazmunini aniqlaştiriş.
4. Bölajak tarbiyaçilarni bolalarni jismoniy tarbiyalaşga tayyorlaşning pedagogik şart-şaroitlarini aniqlaş va nazariy jihatdan asoslaş.
5. Belgilangan pedagogik şart-şaroitlarni amalga oşiriş bosqiçlarini (tayyorlov, asosiy va yakunlovçi) hamda talabalar faoliyatining asosiy turlarini belgilaş.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR ŞARHI

Psixologik-pedagogik fanlarda kasbiy tayyorgarlikning turli jihatlari örganilgan.

Ta'lim falsafasi masalalari A. S. Makarenko işlarida yoritilgan [10]. Pedagog şaxsi, kasbiy faoliyati va kompetentligiga oid qaraşlar N. M. Bibik [11], Ya. A. Komenskiy [12], Ye. A. Flerina [13], L. R. Bolotina [14], T. A. Ilyina [15], A. N. Graborov [16] va Yu. P. Azarov [17] işlarida bayon etilgan. Maktabgaça ta'lim taşkilotlari tarbiyaçilarini tayyorlaşga oid tadqiqotlarda, asosan, "kasbiy kompetentlik" tuşunçasi tavsiflanib, uning ayrim jihatlari nazariy jihatdan asoslangan.

1 https://lex.uz/docs/-5013007
2 https://lex.uz/docs/-4646908
3 https://lex.uz/ru/docs/-4327235
4 https://lex.uz/uz/docs/-7128182
5 https://lex.uz/docs/5179335
6 https://lex.uz/docs/-5077667
7 https://lex.uz/uz/docs/-8093787
8 https://www.lex.uz/ru/docs/-7618066
9 https://lex.uz/uz/docs/-7271575

Jismoniy madaniyat mutaxassislarini kasbiy tayyorlaş masalalarini M. T. Danilko [18], O. V. Petunin [19] va B. M. Şiyan [20] örgangan. Sportçilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi asoslari Yu. V. Verxoşanskiy tomonidan işlab çiqilgan [21].

Oliy pedagogik ta'limga şaxsga yönaltirilgan öqitiş texnologiyalarini joriy etiş masalalari A. A. Verbitskiy [22] va L. P. Suşçenko [23] işlarida körib çiqilgan. Talabalarni maktabgaça yoşdagi bolalarni jismoniy tarbiyalaşga tayyorlaş masalalari M. M. Borisova, N. N. Kojuxova, L. A. Rijkova [24] hamda E. Ya. Stepanenkova [25] işlarida yoritilgan. Erişilgan ilmiy natijalarga qaramay, bölajak tarbiyaçilarni maktabgaça yoşdagi bolalarni jismoniy tarbiyalaşga tayyorlaş muammosi töliq hal etilmagan. Ta'lim-tarbiya jarayonida yuzaga keladigan muammolarning samarali yeçimlarini izlaş va mazkur yönalişdagi ilmiy tadqiqotlarni davom ettiriş zarurati saqlanib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy xarakterga ega. Uning metodologik asosini kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatli va şaxsga yönaltirilgan yondaşuvlar taşkil etadi. Kompetensiyaviy yondaşuv bölajak tarbiyaçining bolalarni jismoniy tarbiyalaşga tayyorligini kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida körib çiqiş imkonini berdi. Tizimli yondaşuvga köra, ta'lim jarayoni alohida bir şart-şaroit asosida emas, balki özaro boğliq pedagogik şart-şaroitlar majmui orqali takomillaştiriladi. Faoliyatli yondaşuv talabaning öquv faoliyatidan bolalarni jismoniy tarbiyalaş böyiça mustaqil kasbiy faoliyatga bosqiçma-bosqiç ötişini asoslaş uçun qöllanildi. Şaxsga yönaltirilgan yondaşuv esa talabaning motivatsiyasi, tayyorgarlik darajasi va individuallaştirilgan mustaqil ta'limini hisobga olişni nazarda tutdi.

Tadqiqotda quyidagi nazariy metodlardan foydalanildi:

1. **Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qiliş:** muammoning örganilganlik darajasi aniqlandi.
2. **Normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qiliş:** Özbekiston Respublikasining maktabgaça ta'lim, jismoniy tarbiya va pedagogning kasbiy standartiga oid hujjatlarida belgilangan talablar örganildi.
3. **Tuşunçalarni tahlil qiliş:** "Pedagogik şart-şaroitlar" tuşunçasining mazmuni aniqlaştirildi.
4. **Taqqoslaş, umumlaştiriş va tizimlaştiriş:** olimlarning ilmiy qaraşlari özaro soliştirildi va ular asosida törtta pedagogik şart-şaroit ajratib körsatildi.
5. **Pedagogik loyihalaş:** pedagogik şart-şaroitlarni amalga oşirişning tayyorlov, asosiy va yakunlovçi bosqiçlari belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgaça ta'lim taşkiloti tarbiyaçisi keng qamrovli kasbiy kompetensiyalarga ega bölgan mutaxassis hisoblanadi. U bolalarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi dastlabki bosqiçini muvaffaqiyatli ötişiga kömaklaşadi hamda boşqa kasbiy vazifalar qatorida ularning jismoniy tarbiyasi bilan ham şuğullanadi. Jamiyatga mazkur vazifalarni samarali bajara oladigan, yetarli kasbiy kompetentlikka ega tarbiyaçilar zarur. Salomatlikni saqlaşga yönaltirilgan texnologiyalarni ta'lim amaliyotida keng qöllaş uçun pedagoglar bilan olib boriladigan metodik işlar tizimini takomillaştiriş talab etiladi. Bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini muhofaza qiliş hamda mustahkamlaş vazifasi, eng avvalo, jismoniy tarbiya jarayonida kompleks tarzda hal etiladi [26, 27]. Bu quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Harakat faoliyati tajribasini egallaş;
2. Egiluvçanlik va harakatlarni muvofiqlaştiriş qobiliyatini rivojlantiriş orqali tayanç-harakat tizimining töğri şakllanişiga kömaklaşiş;
3. Muvozanatni rivojlantiriş va asosiy harakatlarni töğri bajariş könikmalarini şakllantiriş;
4. Harakat faolligini mustaqil boşqariş bilan boğliq qadriyat-motivatsion sohani şakllantiriş;
5. Soğlom turmuş tarzi qadriyatlari, töğri ovqatlaniş, harakat rejimi va çiniqtiriş me'yorlari bilan taniştiriş.

Bölajak tarbiyaçilarni mazkur faoliyatga öz vaqtida tayyorlaş bir qator omillar bilan belgilanadi. Avvalo, ular özlarining asosiy kasbiy majburiyatlarini bajarişga tayyor bölişlari kerak. Bundan taşqari, ta'lim tizimida bolalar salomatligini şakllantiriş va saqlaş, şaxsiy hamda kasbiy maqsadlarga erişiş, lavozim vazifalarini sifatli bajariş va faol ijtimoiy hayot keçiriş uçun pedagoglarning öz salomatligini asraşlari ham muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik şart-şaroitlarni belgilaş, eng avvalo, yakuniy maqsadning qançalik aniq ifodalanganiga boğliq. Ta'lim jarayonini takomillaştirişga, odatda, alohida bir şart-şaroit orqali emas, balki özaro boğliq şart-şaroitlar tizimi asosida erişiladi. Ta'lim jarayonining muayyan bosqiçlarida pedagogik şart-şaroitlarning özi ham ularni amalga oşiriş natijasiga aylanişi mumkin.

O. V. Solntseva talqiniga köra, pedagogik şart-şaroitlar pedagogik tizimning tarkibiy qismi bölib, ta'lim va moddiy-makoniy muhit imkoniyatlari majmuini aks ettiradi. Uşbu imkoniyatlar tizimning şaxsiy va jarayon bilan boğliq jihatlariga ta'sir körsatib, uning samarali faoliyat yuritişi va rivojlanişini ta'minlaydi [28].

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahliliga asoslanib, biz "pedagogik şart-şaroitlar" tuşunçasi ostida ta'lim jarayonida belgilangan vazifalarni hal etişga yönaltirilgan mazmun, metod va şakllarning obyektiv imkoniyatlari majmuini tuşunamiz. Bunday şart-şaroitlar ongli ravişda yaratiladi hamda ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlaşga xizmat qiladi. Tarbiyaçilar va jismoniy tarbiya yöriqçilari tomonidan salomatlikni saqlaşga yönaltirilgan zamonaviy texnologiyalarni qöllaşning turli jihatlari ilmiy tadqiqotlarda örganilmoqda [29, 30]. Bunday texnologiyalardan logopediya amaliyotida ham foydalaniladi.

Pedagogik şart-şaroitlar bölajak tarbiyaçilarda bolalarni jismoniy tarbiyalaşga tayyorlikning şakllanişiga bevosita ta'sir körsatadi. Şu sababli samarali kasbiy tayyorgarlikni ta'minlaş uçun quyidagi pedagogik şart-şaroitlarni amalga oşiriş zarur, deb hisoblaymiz:

1. Talabalarda maktabgaça ta'lim taşkilotlarida jismoniy tarbiya-soğlomlaştiriş texnologiyalarini qöllaşga nisbatan qadriyat-motivatsion munosabatni rivojlantiriş. Bu bölajak tarbiyaçilar orasida salomatlikni saqlaş va mustahkamlaşga yönaltirilgan muhitni şakllantirişga xizmat qiladi.
2. "Maktabgaça yoşdagi bolalarni jismoniy tarbiyalaş va uni öqitiş metodikasi" integratsiyalaşgan kursini öqitiş hamda uning psixologik-pedagogik va tibbiy-biologik fanlar bilan özaro aloqadorligini ta'minlaş.
3. Talabalarning bolalarni soğlomlaştiriş faoliyatini faollaştiriş usullarini egallaşlari uçun muammoli-rivojlantiruvçi maşqlardan foydalaniş.
4. Talabalarning individuallaştirilgan mustaqil ta'lim faoliyatini faollaştiriş.

Mazkur pedagogik şart-şaroitlar uç bosqiçda amalga oşiriladi:

1. **Tayyorlov bosqiçi.** Uşbu bosqiçda tanlangan kasbni örganişga nisbatan motivatsiya şakllantiriladi. 1-3-bosqiç talabalari maktabgaça ta'lim taşkilotlarida taşkil etiladigan namunaviy jismoniy tarbiya maşğulotlari, dam oliş tadbirlari va bayramlar misolida bolalar bilan işlaşga rağbatlantiriladi.
2. **Asosiy bosqiç.** Uşbu bosqiçda "Jismoniy sifatlar" hamda "Maktabgaça yoşdagi bolalarning intellektual va jismoniy rivojlanişining özaro boğliqligi" mavzulariga oid muammoli-rivojlantiruvçi maşqlar bajariladi. Talabalar umumrivojlantiruvçi maşqlar majmualari va harakatli öyinlarni loyihalaştiradilar. Bu ularga bolalarning jismoniy sifatlari rivojlanişining içki psixologik-pedagogik mexanizmlarini anglaş imkonini beradi. 4-5-bosqiç talabalari bolalar, ota-onalar va pedagoglar iştirokida ommaviy sport tadbirlarini taşkil etadilar. Uşbu tadbirlar bolalarda öz salomatligi, organizmining tuzilişi va funksiyalari haqida bilimlarni şakllantiriş, şuningdek, sportning turli turlari bilan şuğullanişga qiziqiş va intilişni rivojlantirişga xizmat qiladi.
3. **Yakunlovçi bosqiç.** Uşbu bosqiçda "Maktabgaça yoşdagi bolalarni jismoniy tarbiyalaş va uni öqitiş metodikasi" fani böyiça laboratoriya maşğulotlari, pedagogik va işlab çiqariş amaliyoti jarayonida talabalarning kasbiy-amaliy malakalari şakllantiriladi. Şuningdek, talabalar ilmiy konferensiya va seminarlarda ma'ruzalar bilan iştirok etadilar. Talabalar faoliyatining asosiy turlarini öquv, kasbiy va öquv-amaliy faoliyat taşkil etadi. Ta'lim jarayonining bunday mantiqiy taşkil etilişi talabalarni mavhum va belgili modellardan tobora aniq hamda amaliy modellarga bosqiçma-bosqiç ötkaziş imkonini beradi. Natijada talabalar öquv faoliyatidan maktabgaça yoşdagi bolalarni jismoniy tarbiyalaş böyiça mustaqil kasbiy faoliyatga ötadilar.

XULOSA

Tadqiqot natijalari bölajak tarbiyaçilarni maktabgaça ta'lim taşkilotlarida bolalarni jismoniy tarbiyalaşga tayyorlaşni özaro boğliq çora-tadbirlar majmui sifatida körib çiqiş zarurligini körsatdi. Uşbu tayyorgarlikning mazmuni, metodlari va şakllari qonunçilikda belgilangan maqsad hamda vazifalarga, şuningdek, maktabgaça yoşdagi bolalarning individual xususiyatlariga mos kelişi lozim. Tayyorgarlik samaradorligi törtta pedagogik şart-şaroitga boğliqligi nazariy jihatdan asoslandi:

- talabalarda jismoniy tarbiya-soğlomlaştiriş texnologiyalarini qöllaşga nisbatan qadriyat-motivatsion munosabatni rivojlantiriş;
- integratsiyalaşgan kursni psixologik-pedagogik va tibbiy-biologik fanlar bilan uzviy boğliqlikda örganiş;
- muammoli-rivojlantiruvçi maşqlardan foydalaniş;
- individuallaştirilgan mustaqil ta'lim faoliyatini faollaştiriş.

Mazkur şart-şaroitlar tayyorlov, asosiy va yakunlovçi bosqiçlarda amalga oşirilib, talabaning öquv faoliyatidan mustaqil kasbiy faoliyatga bosqiçma-bosqiç ötişini ta'minlaydi.

Şu bilan birga, bilim va malakalarni tizimlaştirişga qaratilgan maqsadli işlarning yetarli emasligi, metodik faoliyatda esa an'anaviy şakllarning ustunlik qilişi kuzatiladi. Yuqoridagilardan kelib çiqib, quyidagi takliflar işlab çiqildi:

1. "Maktabgaça ta'lim" yönalişi böyiça öquv dasturlarini pedagogning kasbiy standarti talablariga muvofiq takomillaştiriş hamda jismoniy tarbiya metodikasi kursini psixologik-pedagogik va tibbiy-biologik fanlar bilan integratsiyalaş.
2. Quyi bosqiç talabalari uçun maktabgaça ta'lim taşkilotlarida taşkil etiladigan namunaviy jismoniy tarbiya maşğulotlari, dam oliş tadbirlari va bayramlarni kuzatişni öquv jarayoniga kiritiş.
3. Umumrivojlantiruvçi maşqlar majmualari va harakatli öyinlarni loyihalaşga oid muammoli-rivojlantiruvçi topşiriqlar hamda faol öqitiş metodlaridan foydalanişni kengaytiriş.
4. Pedagogik va işlab çiqariş amaliyoti jarayonida talabalarni bolalar, ota-onalar va pedagoglar iştirokida taşkil etiladigan ommaviy sport tadbirlarini ötkazişga jalb qiliş.
5. Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyati uçun salomatlikni saqlaşga yönaltirilgan texnologiyalarga oid individual topşiriqlar va metodik materiallar işlab çiqiş.
6. Nazariy jihatdan asoslangan pedagogik şart-şaroitlarning samaradorligini aniqlaş maqsadida pedagogik tajriba-sinov işlarini taşkil etiş.

Foydalanilgan adabiyotlar röyxati:

1. Özbekiston Respublikasining "Ta'lim töğrisida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, ÖRQ-637-son. https://lex.uz/docs/-5013007.
2. Özbekiston Respublikasining "Maktabgaça ta'lim va tarbiya töğrisida"gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr, ÖRQ-595-son. https://lex.uz/acts/-4646908.
3. Özbekiston Respublikasi Prezidentining "Özbekiston Respublikasi maktabgaça ta'lim tizimini 2030-yilgaça rivojlantiriş konsepsiyasini tasdiqlaş töğrisida"gi qarori. 2019-yil 8-may, PQ-4312-son. https://lex.uz/docs/-4327235.
4. Özbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgaça ta'lim sifati va samaradorligini yanada oşiriş böyiça qöşimça çora-tadbirlar töğrisida"gi Farmoni. 2024-yil 30-sentabr, PF-152-son. https://lex.uz/acts/-7128182.
5. Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgaça ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlaş töğrisida"gi qarori. 2020-yil 22-dekabr, 802-son. https://lex.uz/docs/5179335.
6. Özbekiston Respublikasi Prezidentining "Soğlom turmuş tarzini keng tatbiq etiş va ommaviy sportni yanada rivojlantiriş çora-tadbirlari töğrisida"gi Farmoni. 2020-yil 30-oktabr, PF-6099-son. https://lex.uz/docs/-5077667.
7. Özbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport töğrisida"gi Qonuni. 2026-yil 24-mart, ÖRQ-1123-son. https://lex.uz/acts/-8093787.
8. Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgaça ta'lim taşkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlaş töğrisida"gi qarori. 2025-yil 8-iyul, 423-son. https://gov.uz/oz/uzedu/pages/vazirlar-mahkamasi-qarorlari.
9. Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgaça va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlaniş tizimini takomillaştiriş töğrisida"gi qarori. 2024-yil 20-dekabr, 867-son. https://lex.uz/acts/-7271575.
10. Макаренко А. С. Педагогические сочинения: в 8 т. – М.: Педагогика, 1983-1986.
11. Бібік Н. М. Компетентнісний підхід: рефлексивний аналіз застосування // Компетентнісний підхід у сучасній освіті: світовий досвід та українські перспективи / за заг. ред. О. В. Овчарук. – К.: К. І. С., 2004. – С. 45-50.
12. Коменский Я. А. Избранные педагогические сочинения: в 2 т. / под ред. А. И. Пискунова. – М.: Педагогика, 1982.
13. Флерина Е. А. Эстетическое воспитание дошкольника. – М.: Изд-во АПН РСФСР, 1961. – 334 с.
14. Болотина Л. Р., Комарова Т. С., Баранов С. П. Дошкольная педагогика. – М.: Академия, 1997.
15. Ильина Т. А. Педагогика: курс лекций. – М.: Просвещение, 1984.
16. Граборов А. Н. Основы олигофренопедагогики. – М., 2005.
17. Азаров Ю. П. Искусство воспитывать. – М.: Просвещение, 1985. – 439 с.
18. Данилко М. Т. Формування готовності до професійної діяльності майбутніх учителів фізичної культури. – Луцьк: Волин. обл. друк., 2003. – 234 с.
19. Петунин О. В. Теоретические основы подготовки студентов к профессиональной деятельности учителя физической культуры: автореф. дис. ... д-ра пед. наук: 13.00.04. – М., 1993.
20. Шиян Б. М. Теоретично-методичні основи підготовки вчителів фізичного виховання в педагогічних навчальних закладах: автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – К., 1997. – 50 с.
21. Верхошанский Ю. В. Основы специальной физической подготовки спортсменов. – М.: Физкультура и спорт, 1988. – 331 с.
22. Вербицкий А. А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. – М.: Высшая школа, 1991.
23. Сущенко Л. П. Професійна підготовка майбутніх фахівців фізичного виховання та спорту (теоретико-методологічний аспект). – Запоріжжя: Запорізький державний університет, 2003.

24. Борисова М. М., Кожухова Н. Н., Рыжкова Л. А. Воспитатель в дошкольных образовательных организациях. Физическое воспитание дошкольников: учебное пособие / под ред. С. А. Козловой. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2024. – 508 с.
25. Степаненкова Э. Я. Теория и методика физического воспитания и развития ребенка: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – 2-е изд., испр. – М.: Издательский центр "Академия", 2006. – 368 с.
26. Шебеко В. Н. Теория и методика физического воспитания детей дошкольного возраста: учебное пособие. – 3-е изд., испр. – Минск: Вышэйшая школа, 2015. – 287 с.
27. Петр Францевич Лесгафт: вклад в педагогику [Электронный ресурс]. – URL: http://uçite176.ru/petr-francevih-les-gaft-vklad-v-pedagogiku/.
28. Дошкольная педагогика с основами методик воспитания и обучения: учебник для вузов. Стандарт третьего поколения / под ред. А. Г. Гогоберидзе, О. В. Солнцевой. – СПб.: Питер, 2013. – 464 с.
29. Валиева Г. В., Игнатова Д. А. Инновационные технологии в физическом воспитании и спорте // Философские аспекты физической культуры и спорта: материалы Всероссийской научно-практической конференции с международным участием / под ред. А. Ю. Фролова. – Тула, 2017. – С. 495-499.
30. Волошина Л., Курилова Т. Играйте на здоровье // Дошкольное образование. – 2006. – № 5. – С. 1-5.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar böyiça)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport maşğulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqiçlari böyiça)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgaça ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Aşurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovçi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №11(1)

© Materiallar köçirib bosilganda "Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida körsatilişi şart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan Özbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi böyiça röyxatdan ötkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toşkent şahar, Yunusobod tumani 19-mavze, 17-uy.